O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI CHORTOQ TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

161000, Chortoq shahri Istiqlol hiyoboni ko’chasi 24 uy

2022 - yil 17 - mart 161-6-88-Q/22 Chortoq tuman hokimligi

Tumandagi dafn etish joylarini saqlash qoidalarini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining “Dafn etish va dafn ishi to'g'risida”gi qonunining 15-moddasiga asosan, Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 4 apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to'g'risida”gi 101-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, Chortoq tuman "Obodonlashtirish" boshqarmasining 2022 yil 1 fevraldagi 18-sonli xatini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi qonunning 6, 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Chortoq tuman "Obodonlashtirish" boshqarmasining 2022 yil 1 fevraldagi 18-sonli xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Chortoq tumanida dafn etish joylarini saqlash qoidalari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Chortoq tuman "Obodonlashtirish" boshqarmasi, sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi hamda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va tuman qurilish bo'limlariga:

tumandagi barcha qabristonlarda dafn etish joylarini saqlash qoidalarini bir xilda ijro etilishini;

mazkur qoidalarda belgilangan normalarni aholi o'rtasida keng yoritilishini ta'minlansin.

4. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida rasman e'lon qilinsin va bir kun muddatda hokimlikning Chortoq.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Qarordan norozi shaxslar belgilangan tartibda yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari S.Mirzabayev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **А.Отаходжаев**